

**TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH RESPUBLIKA ILMIY-
METODIK MARKAZI**



YOSH OLIMLAR VA TADQIQOTCHILAR MAKTABI

**PEDAGOGLARNING KASBIY MALAKASINI OSHIRISH UCHUN
SAMARALI YONDASHUVLARNING AHAMIYATI**


Zamira Sangirova, PhD

TOSHKENT – 2025



REJA

1. Kasbiy malaka tushunchasi va uning mazmuni
2. Kasbiy malakani oshirish zarurati va asosiy vazifalari
3. Pedagoglarning kasbiy malakasini oshirishdagi samarali yondashuvlar



KASBIY MALAKA TUSHUNCHASI VA UNING MAZMUNI

Kasbiy malaka – bu o'qituvchining o'z kasbiga oid bilim, ko'nikma va qobiliyatlardir. Kasbiy malaka quyidagi komponentlardan iborat:

- **Bilimlar** (nazariy va amaliy);
- **Ko'nikmalar** (metodik, kommunikativ, axborotli);
- **Shaxsiy sifatlar** (ijtimoiy mas'uliyat, refleksiya, empatiya).



Empatiya – oʻzga shaxs his-tuygʻulari, dard va quvonchlarini inson oʻzida his qilishi, hamdard, boʻlishi (achinish, qaygʻurish, kuyinish va sevinishi), koʻmaklashish yoki quvonchiga sherik, xayrixohlik istagining paydo boʻlishidir. Empatiya biz quyidagilarda koʻrishimiz mumkin.

- Boshqaning dard yoki quvonchini oʻzida his qilish;
- Boshqaga dalda berish yoki xayrihox, dardiga sherik boʻlish.

Dunyo yaralibdiki, eng kuchli empatiya – onaning bolaga nisbatan empatiyasidir. Sevimli ustoz boʻlishni istagan oʻqituvchi, avvalo, oʻzi oʻquvchilarini astoydil, samimiy yaxshi koʻrishi, xuddi oʻz farzandidek mehr koʻrsatishi lozim. Demak, oldin oʻquvchi bilan yaqindan tanishish, uni har tomonlama oʻrganish, uning ochilmagan, nomaʼlum qirralarini kashf eta olish muhim. Bolaning shunda oʻqituvchiga munosabati, mehri ortadi, unga nisbatan empatiyasi yanada kuchayadi.



KASBIY MALAKA VA UNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

- **Boshlang'ich daraja:** nazariy bilimlarni o'zlashtirish, dastlabki tajriba orttirish. Bunda pedagogik metodlar va vositalarni to'g'ri tanlashi;
- **Malakali bosqich:** o'z uslubini shakllantirish, individual yondashuvga ega bo'lish. O'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olishi;
- **Innovator darajasi:** yangi metodlarni joriy etish, boshqalarni o'rgatish. Innovatsion texnologiyalardan foydalanish.
- **Tadqiqotchi pedagog:** ilmiy-tadqiqot faoliyatida ishtirok etish, metodik yangiliklar yaratish. O'z ustida ishlash va refleksiya qilish qobiliyatlari.



KASBIY MALAKANI OSHIRISH ZARURATI VA ASOSIY VAZIFALARI

Kasbiy malakani oshirish — bu mutaxassislarning oʻz sohalarida bilim va koʻnikmalarini yangilash, kengaytirish va takomillashtirish jarayonidir. Bu jarayon zamonaviy mehnat bozorining talablariga mos kelishi, raqobatbardoshlikni oshirish va professional rivojlanishni taʼminlash maqsadida amalga oshiriladi.



KASBIY MALAKA OSHIRISHNING ENG MUHIM SABABLARI

- Davlat ta'lim siyosatidagi o'zgarishlar;
- Ta'lim standartlarining yangilanishi;
- Raqobatbardosh kadrlar tayyorlash talablari;
- Raqamli texnologiyalar ta'limga integratsiyasi;
- Ijtimoiy-psixologik muhitning murakkablashuvi.



KASBIY MALAKANI OSHIRISHNING VAZIFALARI:

Innovatsion pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish;


O'z ustida mustaqil ishlash orqali o'z-o'zini rivojlantirish;

O'quvchilarga individual yondashuvlarni ishlab chiqish;

Kasbiy faoliyatida o'zini-o'zi baholash.




PEDAGOGLARNING KASBIY MALAKASINI OSHIRISHDAGI SAMARALI YONDASHUVLAR



XULOSA

Pedagoglarning kasbiy malakasini oshirish bu nafaqat ularning shaxsiy rivoji, balki jamiyatdagi ta'lim sifati, yosh avlodning kelajagi, davlatning taraqqiyoti bilan bevosita bog'liqdir. Innovatsion yondashuvlar, raqamli texnologiyalar, tajriba almashinuvi orqali bu jarayonni yangi bosqichga olib chiqish mumkin. Har bir pedagog o'z ustida ishlashni, yangilikka ochiqlikni, o'zgarishga tayyorlikni kasbiy burch deb bilishi zarur, bu holda ta'lim tizimi haqiqiy sifat o'zgarishlariga erishadi.





**E'tiboringiz uchun
raxmat!**